

INGLIZ TILINI IKKINCHI TIL (ESL) SHAROITIDA O'RGATISHDA YOZMA NUTQ KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY- METODOLOGIK ASOSLARI

Gafforova Durdona Gafforovna

University of Business and Science. O'qituvchi

Elektron pochta: durdonagafforova16@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'qitish jarayonida talabalar va o'quvchilarning yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy va metodologik asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida pedagogika va metodika sohasidagi ilmiy adabiyotlar asosida yozma nutqni rivojlantirishga oid zamonaviy pedagogik yondashuvlar o'rganiladi. Tadqiqotning natijalari ESL (English second language) ingliz tili ikkinchi til sharoitida yozma nutqni rivojlantirish uchun kommunikativ yondashuv, jarayonli yozish metodikasi va interaktiv pedagogik texnologiyalar muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Yozma nutq kompetensiyasi — bu shaxsning o'z fikr-mulohazalarini izchil, lo'nda, mantiqiy va grammatik qoidalarga rioya qilgan holda, matn shaklida bayon etish ko'nikmasidir. Bu shunchaki yozish emas, balki turli mavzularga oid insho, bayon, xat yoki hisobotlar orqali fikrni to'g'ri yetkazib berish, nutq madaniyati va savodxonlik darajasini ko'rsatuvchi murakkab jarayondir.

Kalit so'zlar: yozma nutq, ESL, kompetensiya, metodika, kommunikativ yondashuv, pedagogika, til o'qitish.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ ПИСЬМЕННОЙ РЕЧИ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА КАК ВТОРОГО ЯЗЫКА (ESL)

Гаффарова Дурдона Гаффаровна

Учительница, Университета бизнеса и науки

Электронная почта: durdonagafforova16@gmail.com

Аннотация: В данной статье анализируются теоретические и методологические основы развития компетенции письменной речи у студентов и учащихся в процессе обучения английскому языку как второму (ESL). В ходе исследования на основе научной литературы по педагогике и методике были изучены современные педагогические подходы к развитию письменной речи. Результаты исследования показывают, что в условиях обучения ESL важную роль в развитии письменной речи играют коммуникативный подход, процессный метод обучения письму, а также интерактивные педагогические технологии.

Компетенция письменной речи — это способность личности грамотно, логично и с соблюдением грамматических норм излагать свои мысли в письменной форме. Это не просто умение писать, а сложный процесс, который включает правильную передачу

мыслей по различным темам посредством сочинений, изложений, писем или отчетов, а также отражает уровень речевой культуры и грамотности.

Ключевые слова: *письменная речь, ESL, компетенция, методика, коммуникативный подход, педагогика, обучение языку.*

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASIS OF DEVELOPING WRITTEN SPEECH COMPETENCE IN TEACHING ENGLISH AS A SECOND LANGUAGE (ESL)

Gafforova Durdona Gafforovna

Teacher, University of Business and Science

Email: durdonagafforova16@gmail.com

Annotation: *This article analyzes the theoretical and methodological foundations for developing students' and learners' written language competence in the context of teaching English as a Second Language (ESL). The study examines contemporary pedagogical approaches to developing writing skills based on scientific literature in pedagogy and language teaching methodology. The results indicate that, in ESL contexts, the development of written language competence relies heavily on the communicative approach, process-based writing methods, and interactive pedagogical technologies.*

Written language competence is the ability of an individual to express their thoughts clearly, logically, and according to grammatical rules in written form. It is not merely the act of writing but a complex process that involves accurately conveying ideas on various topics through essays, compositions, letters, or reports, reflecting both the level of linguistic culture and literacy.

Keywords: *written language, ESL, competence, methodology, communicative approach, pedagogy, language teaching.*

KIRISH

Hozirgi globallashuv jarayonida ingliz tili xalqaro muloqot tili, ilm-fan, texnologiya va ta'lim yo'nalishlarida yetakchi tillardan biri sifatida muhim o'rin egallagan. Shu sababli ko'plab davlatlarda ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'qitish (ESL – English as a Second Language) ta'lim tizimining muhim yo'nalishlaridan biriga aylangan. O'zbekiston ta'lim sohasida ham chet tillarni, ayniqsa ingliz tilini o'qitishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu o'qitish jarayonda o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Til o'qitish metodikasida kommunikativ kompetensiya to'rt asosiy nutq faoliyati turini o'z ichiga oladi: tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish. Nutq faoliyat turlaridan eng murakkab ko'nikmalardan biri yozma nutq hisoblanadi.

Sababi yozma nutq til o'rganuvchidan nafaqat grammatik bilimlarni, balki mantiqiy fikrlash, matnni tuzish, g'oyalarni izchil bayon qilish va stilistik jihatdan to'g'ri qo'llay olish san'atini ham talab etadi.

Pedagogika nazariyasida yozma nutq shaxsning fikrni yozma shaklda aniq, lo'nda, izchil mantiqiy va tizimli ifodalash qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Bu ko'nikma o'quvchilarning nafaqat til bilimlarini, balki intellektual rivojlanish darajasini ham aks ettiradi. Shuning uchun ham zamonaviy ta'lim tizimida yozma nutq kompetensiyasini shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan biridir.

Chet tilini o'qitish metodikasida yozma nutqni rivojlantirish masalalarini ko'plab metodist olimlar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, J. Jalolov o'z tadqiqotlarida chet tilini o'qitish jarayonida nutq faoliyatining barcha turlarini kompleks rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, yozma nutqni o'rgatish jarayoni til birliklarini o'zlashtirish, nutqiy vaziyatlarni modellashtirish hamda kommunikativ mashqlar orqali amalga oshirilishi lozim.

Pedagogika nazariyasida ta'lim jarayonining samaradorligi o'quvchilarda zarur kompetensiyalarni shakllantirish bilan belgilanadi. K.Jumanov ta'kidlaganidek, zamonaviy pedagogik jarayon shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillariga asoslanishi va o'quvchilarning mustaqil fikrlash hamda ijodiy faoliyatini rivojlantirishga xizmat qilishi kerak. Bu esa o'quvchilarning yozma nutq kompetensiyasini shakllantirish jarayonida ham zamonaviy pedagogik metodlar va texnologiyalardan foydalanishni talab etadi.

Yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogika va metodika fanlarining muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki yozma nutq nafaqat til o'rganish jarayonining muhim komponenti, balki shaxsning akademik va professional faoliyatida zarur bo'lgan muhim kommunikativ ko'nikmadir. M. Ahmedovanning ta'kidlashicha, pedagogika nazariyasida shaxsning har tomonlama rivojlanishi ta'lim jarayonining asosiy maqsadlaridan biri bo'lib, bu jarayonda nutq kompetensiyasini rivojlantirish muhim o'rin tutadi.

Shu bilan bir qatorda pedagogika tarixi va nazariyasiga oid tadqiqotlarda nutq kompetensiyasini shakllantirishni masalasi ko'plab mulohazalarda alohida e'tirof etilgan. N.H. Rahmonqulova pedagogik jarayonda ta'lim metodlari va vositalarining

to'g'ri tanlanishi o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini samarali rivojlantirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi. Bu esa ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'qitish jarayonida yozma nutqni rivojlantirishni ilmiy asoslangan metodologiyani ishlab chiqishligini ko'rsatadi.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, ESL(English as a second language) ingliz tili ikkinchi chet til sifatida talabalar ko'pincha yozma nutq jarayonida ko'pgina qiyinchiliklarga duch keladilar. Ularning grammatik strukturalarda to'g'ri qo'llay olmaslik muammolari, fikrni izchil lo'nda bayon qilaolmaslik muammolari matnni uzviy davom ettirishda ko'plab qiyinchiliklarga duch kelishadi. Bu muammolarni yozma nutqda rivojlantirish davomida samarali metodik yondashuvlardan foydalanish zarurligini taqozo etadi.

Zamonaviy chet tilini o'qitish metodikasi fanida yo'zma nutqni rivojlantirishni kommunikativ yondashuv orqali, jarayonli yozish metodikasi bilan va interaktiv pedagogik texnologiyalaridan keng foydalanish qo'llanilmoqda. Ushbu metodlar talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi, ijodiy yozish ko'nikmalarini shakllantiradi hamda til kompetensiyasini oshirishga yordam beradi.

Yozma nutq kompetensiyasi haqidagi fikrlar ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'qitish jarayonida yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini chuqur o'rganish zarurligini ko'rsatib beradi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi ESL(English as second language) ingliz tilini ikkinchi til sifatida yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy va metodologik asoslarini tahlil qilish va ushbu jarayonni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy xulosalarni ishlab chiqishdan iborat.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqot ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'qitish mobaynida yozma nutq ko'nikmasini rivojlantirishning nazariy va metodologik asoslarini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida pedagogika va chet til o'qitish metodikasi sohasidagi ilmiy manbalarni tahlili amaliy qo'landi hamda ularning nazariy fiklari umumlashtirildi. Yozma nutq kompetensiyasi — bu shaxsning o'z fikr-mulohazalarini adabiy va imlo xatolarsiz, mantiqiy, izchil va grammatik qoidalarga rioya qilgan holda, matn shaklini to'g'ri yozish ko'nikmasi. Bu shunchaki yozish

emas, balki turli xil mavzularda insho, bayon, xat yoki hisobotlar orqali fikrni to'g'ri yetkazib berish orqali, nutq madaniyati, so'zlarni to'g'ri qo'llay olish va savodxonlik darajasini ko'rsatuvchi murakkab jarayondir.

Yozma nutq kompetensiyasining asosiy tarkibiy komponentlari:

- Savodxonlik: Imlo, punktuatsiya (tinish belgilari) va grammatik qoidalarni to'g'ri qo'llay olishdir.
- Mantiqiy izchillik: Fikrni reja asosida, bog'lanishli, tizimli va tushunarli tarzda bayon qilish san'ati.
- Lug'at boyligi: Mavzuga mos so'z va iboralarni o'rinli qo'llay bilishlikdir.
- Uslubiy to'g'rilik: Matn turiga (ilmiy, badiiy, rasmiy, publisistik) mos uslubdan qo'llay olishdir.

Ushbu kompetensiya talabalarda matnlar ustida ishlashni, ijodiy yozma ishlar bajarishni va mustaqil fikrlashni shakllantiradi.

Tadqiqot metodologiyasi quyidagi ilmiy yondashuvlarga asoslandi:

1. Tizimli yondashuv

Tizimli yondashuvda, ta'lim jarayoni o'zaro bog'liq komponentlardan tashkil topgan murakkab pedagogik tizim hisoblanib bu tizimning asosiy elementlari ta'lim maqsadini, mazmuni, metodlarini, vositalari bilan natijalari hisoblanadi. Yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishning jarayoni mobaynida mazkur elementlarning o'zaro uyg'unligi muhim ahamiyat kasb etishligi aytiladi.

2. Kommunikativ yondashuv

Kommunikativ yondashuv zamonaviy chet til o'qitish metodikasining asosiy tamoyillaridan biri hisoblanib, bu yondashuvga ko'ra, til o'rgatish jarayonida real muloqot vaziyatlariga asoslanishi lozim. Yozma nutqni rivojlantirish mobaynida esse, referat, ijodiy matnlar yozish kabi kommunikativ vazifalar muhim rol o'ynaydi.

3. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvi

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasida, o'quv jarayonida talabalarining shaxsiy qobiliyatlari, ehtiyojlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi kerak. Bu esa yozma nutqni rivojlantirish jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlashini ijodiy yondashuvini qo'llab-quvvatlash talab etadi.

Tadqiqot metodlari: Tadqiqot mobaynida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

- ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish metodi.
- qiyosiy pedagogik tahlil metodi.
- umumlashtirish metodi.
- tizimli tahlil metodi.

Ushbu metodlar yordamida yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy qarashlar o'rganildi va ularning metodologik asoslarini aniqlashtirildi.

TADQIQOT NATIJALARI

Tadqiqot natijalari ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'qitish davomida yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishni bir qator pedagogik omillarga bog'liq ekanligini ko'rsatib berildi.

1. Yozma nutq kompetensiyasining tarkibiy komponentlari

Yozma nutq kompetensiyasi quyidagi komponentlardan tashkil topadi:

- lingvistik kompetensiya – grammatik va leksik bilimlar o'z ichiga oladi;
- diskursiv kompetensiya – matnni mantiqiy tuzish qobiliyatidir;
- pragmatik kompetensiya – fikrni kommunikativ maqsadga mos ifodalashdir.

Yuqorida aytib o'tilgan komponentlarning uyg'un rivojlanishida o'quvchilarning yozma nutq faoliyatini izchil muqobil tashkil etishga imkon yaratadi.

2. Yozma nutqni rivojlantirish bosqichlari

Tadqiqot natijalariga ko'ra, yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishning quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. tayyorgarlik bosqichi – mavzu bo'yicha g'oyalarni shakllantirib beriladi.
2. matn yaratish bosqichi – dastlabki yozma matnni tuzishdan iborat.
3. tahrirlash bosqichi – grammatik, imlo va stilistik xatolarni tuzatish va tahrir etiladi.
4. yakuniy bosqich – matnni mukammallashtirishdir.

Mazkur bosqichlar boqichma-bosqich yozish metodikasining asosini tashkil etadi.

3. Samarali metod va usullar

Tadqiqot jarayonida yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishda mazkur metodlar samarali ekanligi aniqlandi:

- esse(insho) yozish;
- referat tayyorlash;
- matn tahlili (mazmuni,til va uslub, tuzilish tahlili, boshqa);
- ijodiy yozma topshiriqlar (hikoya yozish, diolog yozish, xat yozish ,she'r yoki kichik badiiy matn yozish);
- loyiha asosida ta'lim (ingliz tilida loyiha taqdimoti).

Mazkur metodlar talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda yozma nutq faoliyatini faollashtirishga yordam beradi.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari pedagogika nazariyasida chet til o'qitish metodikasi to'g'risida amaldagi ilmiy qarashlar bilan uyg'unligini ko'rsatdi. Zamonaviy pedagogika nazariyasiga bo'yicha, ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvni qo'llash o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarini tizimli rivojlantirishga imkon beradi.

Yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirish davomida talabanning pedagogik mahorati muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi talabalarga nafaqat til bilimlarini o'rgatishi, balki ularni mustaqil fikrlashga ham yo'naltirishi zarur.

Shu bilan bir qatorda, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni yozma nutqda takomillashtirish mobaynida samaradorligini oshiradi. Masalan:

- onlayn yozma topshiriqlar bilan ;
- elektron ta'lim platformalari orqali;
- interaktiv ta'lim vositalari yordamida.

Yuqoridagi berilgan vositalar talabalarning yozma faoliyatini faollashtiradi hamda ularning til o'rganishga bo'lgan hohishini oshiradi.

Pedagogika nazariyasida ta'lim jarayonida samaradorligini ko'p jihatdan foydalanilayotgan metod va texnologiyalarning ilmiy asoslanganligiga bog'liqdir. Shuningdek, ingliz tilini o'qitishda yozma nutqni takomillashtirish metodikasini rivojlantirish dolzarb ilmiy masala hisoblanadi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'qitish jarayonida yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirish ko'p qirrali pedagogik jarayondir.

Mazkur jarayonning samaradorligi quyidagi omillarga bog'liq:

- kommunikativ yondashuvdan foydalanish orqali.
- jarayonli yozish metodikasini qo'llash bilan.
- shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillarini qo'llashdir.
- zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amalda qo'llashdir.

Tadqiqot natijalari ESL (English as second language) ingliz tili ikkinchi til sifatida yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishning metodikasini takomillashtirishga yordam berishi mumkin. Kelgusida mazkur yo'nalishda empirik tadqiqotlar olib borish hamda innovatsion pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga keng joriy etish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jalolov J. Chet til o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 2012.
2. Jumanov K. Umumiy pedagogika. – Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 2018.
3. Ahmedova M.E. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: Tafakkur-Bo'stoni, 2011.
4. Rahmonqulova N.H. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 2010.
5. Hoshimov O', Yoqubov I. Ingliz tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2003.
6. Xoldorova M., Fayziyeva N., Rixsittilayeva F. Chet tilini o'qitishda yordamchi vositalardan foydalanish. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2005.
7. Bekmuratova U.B. Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish. – Toshkent, 2012.
8. Otaboyeva M.R. Chet tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalar. – Moskva: Molodoy uchyony jurnali, 2017.
9. Shabanov D. Chet tilini o'qitish metodikasi va zamonaviy texnologiyalar. – Toshkent, 2009.
10. Xoliyov A. Pedagogik mahorat. – Toshkent: Iqtisod-moliya nashriyoti, 2011.
11. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H., Matnazarova K.O. Umumiy pedagogika. – Toshkent, 2018.
12. Ataeva N., Rasulova F., Hasanov S. Umumiy pedagogika. – Toshkent, 2011.
13. Harmer J. How to Teach English. – London: Longman, 2007.
14. Richards J., Rodgers T. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001.

15. Brown H.D. Principles of Language Learning and Teaching. – New York: Pearson Education, 2007.
16. Hyland K. Second Language Writing. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003.
17. Johnson K.E. The Sociocultural Turn and Its Challenges for Second Language Teacher Education. – TESOL Quarterly, 2006.
18. Shchukin A.N. Modern Methods of Teaching Foreign Languages. – Moscow: Filomatis, 2008. rol o'ynaydi.